

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIDA RAMZ VA UNING OBRAZLASHUVI

Gulmurodova Dilshoda Qobil qizi

Navoiy davlat universiteti, magistrant.

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodida ramz va uning obrazlashuvi masalasi tahlil qilinadi. Xalq og'zaki ijodining doston, ertak va afsona kabi janrlari misolida ramziy obrazlarning badiiy hamda ma'naviy ahamiyati yoritiladi. Xususan, "Alpomish" dostonidagi Oybachin obrazi, "Zumrad va Qimmat" ertagidagi qahramonlar hamda Humo qushi afsonasidagi ramziy timsollar orqali xalqning ezgulik, sadoqat, adolat, baxt va komillik haqidagi qarashlari tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida folklor asarlaridagi ramzlar xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini ifodalovchi muhim badiiy vosita ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, folklor janri, ramz, obraz, obrazlashuv, badiiy talqin, qahramonlik eposi.

СИМВОЛ И ЕГО ХУДОЖЕСТВЕННО-ОБРАЗНОЕ ВОПЛОЩЕНИЕ В УЗБЕКСКОМ УСТНОМ НАРОДНОМ ТВОРЧЕСТВЕ

Гулмуродова Дилшода Кобил кизи

Навоийский государственный университет, магистрант.

Аннотация.

В статье анализируются символ и его художественно-образное воплощение в узбекском устном народном творчестве. На примере таких жанров фольклора, как дастан, сказка и легенда, раскрывается художественное и духовное значение символических образов. В частности, на материале образа Ойбарчин в дастане «Алпомиш», персонажей сказки «Зумрад и Киммат», а также символических образов легенды о птице Хумо рассматриваются народные представления о добре, верности, справедливости, счастье и духовном совершенстве. В результате исследования обосновывается, что символы в фольклорных произведениях являются важным художественным средством выражения исторической памяти, мировоззрения и духовных ценностей народа.

Ключевые слова: устное народное творчество, фольклорный жанр, символ, образ, художественное воплощение, художественная интерпретация, героический эпос.

SYMBOL AND ITS ARTISTIC REPRESENTATION IN UZBEK ORAL FOLK LITERATURE

Gulmurodova Dilshoda Qobil qizi

Navoi State University, Master's Student.

Abstract.

This article analyzes symbols and their artistic representation in Uzbek oral folk literature. Using such folklore genres as epics, fairy tales, and legends, the study explores the artistic and spiritual significance of symbolic images. In particular, the image of Oybachin in the epic *Alpomish*, the characters of the fairy tale *Zumrad and Qimmat*, and the symbolic imagery associated with the legendary Humo bird are examined to reveal traditional views on goodness, loyalty, justice, happiness, and spiritual perfection. The study demonstrates that symbols in folklore serve as important artistic means of expressing the historical memory, worldview, and spiritual values of the people.

Keywords: oral folk literature, folklore genre, symbol, image, artistic representation, literary interpretation, heroic epic.

Kirish. O'zbek xalq og'zaki ijodi xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy-madaniy tajribasi, dunyoqarashi va estetik tafakkurini o'zida mujassam etgan noyob badiiy merosdir. U yozma adabiyot paydo bo'lishidan ancha oldin yuzaga kelgan bo'lib, avloddan avlodga og'zaki tarzda yetkazib kelingan. Xalq og'zaki ijodi xalqning tarixiy xotirasini saqlash, axloqiy-me'yoriy qarashlarini mustahkamlash hamda milliy qadriyatlarni targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek folklori janr jihatidan rang-barang bo'lib, unga dostonlar, ertaklar, afsonalar, rivoyatlar, maqollar, matallar, topishmoqlar, laparlar, qo'shiqlar va marosim folklori namunalari kiradi. Misol uchun, o'zbek xalq og'zaki ijodi janrlariga mansub asarlar orasida dostonlardan "Alpomish", "Go'ro'gli", "Kuntug'mish"; ertaklardan "Zumrad va Qimmat", "Uch og'a-ini botirlar", "Oltin tarvuz"; afsonalardan "Humo qushi afsonasi", "Bibixonim haqidagi afsona"; rivoyatlardan "To'maris" va "Shiroq" rivoyatlari; maqollardan "Yetti o'lchab, bir kes", "Mehnatning tagi rohat"; matallardan "Qovun tushirib qo'ltig'idan", "Tuyaning dumi yerga tekkanda"; topishmoqlardan "O'zi bir qarich, soqoli qirq qarich" kabi namunalarni keltirish mumkin. Shuningdek, xalq qo'shiqlari va laparlar ham o'zbek folklorining

muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ushbu janrlarning har biri xalq hayotining muayyan jihatlarini aks ettiradi. Masalan, dostonlarda qahramonlik, vatanparvarlik va sadoqat g'oyalari ulug'lansa, ertaklarda ezgulik va adolatning yovuzlik ustidan g'alabasi tasvirlanadi. Maqol va matallarda esa xalqning hayotiy tajribasi hamda donishmandligi ixcham shaklda ifodalanadi.

Xalq og'zaki ijodining muhim xususiyatlaridan biri uning jamoaviy xarakterga egaligidir. Folklor asarlarining muallifi aniq bo'lmaydi, chunki ular xalq ijodi mahsuli sifatida uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi va takomillashadi. Shu bilan birga, folklor namunalari og'zaki ijro an'analariga asoslanganligi sababli turli hududlarda o'ziga xos variantlarga ega bo'ladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki xalqning milliy o'zligini namoyon etuvchi ma'naviy manba hamdir. Unda xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlar, diniy va mifologik tasavvurlari, axloqiy qadriyatlari hamda tabiat va jamiyat haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Shu sababli folklor namunalari o'rganish xalqning madaniy taraqqiyoti va ma'naviy dunyosini anglashda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

ADABIYOT TAHLILLARI VA METODLAR

O'zbek xalq og'zaki ijodida ramz xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, e'tiqodi va ma'naviy qadriyatlarini muayyan obraz, predmet yoki hodisa orqali ifodalovchi badiiy vositadir. Ramz folklor asarlarida bevosita ma'nodan tashqari chuqurroq mazmunni anglatib, xalqning hayot, tabiat, ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi. Masalan, quyosh hayot va yorug'likni, suv poklanish va hayot manbayini, qush esa erkinlik va ruhiy yuksalishni ifodalovchi ramz sifatida talqin qilinadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari ramzlar ko'pincha obrazlar orqali namoyon bo'ladi. Obrazlashuv jarayonida muayyan predmet yoki hodisa badiiy talqin qilinib, ramziy mazmun kasb etadi. Natijada folklor asarlaridagi qahramonlar, hayvonlar, tabiat hodisalari va turli buyumlar oddiy tasvir vositasi bo'lib qolmay, xalqning ma'naviy qarashlari va estetik ideallarini ifodalovchi timsollarga aylanadi.

"Alpomish" dostoni o'zbek xalqining qahramonlik eposi bo'lib, unda xalqning ozodlik, vatanparvarlik, sadoqat va adolat haqidagi qarashlari badiiy ifodasini topgan. Doston markazida Alpomish va Oybachinning taqdiri, ularning muhabbati, yurt va oila sha'nini himoya qilish yo'lidagi kurashlari tasvirlanadi. Dostonda bir qator ramziy obrazlar uchraydi. Jumladan, Alpomish obrazi mardlik, jasorat va vatanparvarlik ramzi hisoblanadi. U xalqning ideal qahramoni sifatida tasvirlanib, adolat va ezgulik yo'lida kurashadi. Oybachin obrazi esa go'zallik, sadoqat, aql-zakovat va ma'naviy poklik timsolidir.

"Alpomish" dostonida Oybachin obrazi o'zbek xalqining ideal ayol haqidagi tasavvurlarini mujassamlashtirgan yorqin obrazlardan biridir. Dostonda u nafaqat go'zal qiz, balki aql-zakovatli, jasur va matonatli shaxs sifatida gavdalanadi. Uning xarakterida oqilalik va hayotiy tajribaga xos fazilatlar mujassam bo'lib, bu jihat ayrim epizodlarda yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, Oybachinning:

"Xotin bo'lmasmikan erning vaziri?!

Er deganning aqlin olmas bo'lurmi..."

degan fikrlari uning oiladagi ayol o'rniga chuqur nazar bilan qarashini ko'rsatadi. Ushbu misralarda ayol faqat turmush hamrohi emas, balki erkakning eng yaqin maslahatchisi va suyanchi sifatida talqin qilinadi. Bu esa Oybachin obrazining donolik va aql-zakovat ramzi sifatidagi mohiyatini ochib beradi.

Doston voqealari davomida Oybachinning jasorati ham alohida e'tiborga loyiq. U murakkab vaziyatlarda ham qat'iyat ko'rsatib, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qila oladigan qahramon sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, qalmoq alplari bilan bog'liq voqealarda uning:

"Bilsang, men ham, qalmoq, senga barobar"

deya murojaat qilishi qahramonning qo'rqmasligi, o'z kuchiga ishonishi va mardligini namoyon etadi. Mazkur misralar Oybachinning xalq eposlaridagi alp qizlar an'anasiga mansub obraz ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Oybachin dostonida husn-malohat egasi sifatida tasvirlansa-da, uning go'zalligi faqat tashqi ko'rinish bilan cheklanmaydi. U ma'naviy poklik, sadoqat, oqilalik va jasorat kabi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Shu bois Oybachin obrazi o'zbek xalq og'zaki ijodida ideal ayol, sadoqat va komillik ramzi sifatida obrazlashgan. Asarda qalmoq yurti ham ramziy ma'no kasb etadi. U begonalik, sinov va qahramonning ma'naviy chiniqish makoni sifatida talqin qilinadi. Alpomishning ushbu yurtdagi kurashlari uning jismoniy kuchi bilan birga ruhiy barkamolligini ham namoyon etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

"Zumrad va Qimmat" ertagi o'zbek xalq ertakchiligining axloqiy-tarbiyaviy mazmuni bilan ajralib turadigan namunalaridan biridir. Asarda qarama-qarshi xarakterga ega bo'lgan ikki qiz obrazi orqali xalqning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari ifoda etiladi. Voqealar rivoji davomida insonning fe'l-atvori uning hayotidagi natijalarga qanday ta'sir ko'rsatishi badiiy talqin qilinadi.

Ertakdagi Zumrad obrazi halollik, mehnatsevarlik va samimiylik kabi ijobiy fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi. U kattalarga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan, mashaqqatlardan cho'chimaydigan va har qanday vaziyatda odob doirasidan chiqmaydigan qahramon sifatida tasvirlanadi. Shu sababli Zumrad obrazi xalqning ezgu inson haqidagi ideal tasavvurlarini ifodalovchi ramziy timsol sifatida namoyon bo'ladi. Qimmat obrazi esa buning teskarisi bo'lib, unda takabburlik, erinchoqlik va bemehrlik kabi salbiy xususiyatlar mujassamlashtirilgan. Ertak davomida uning xatti-harakatlari salbiy oqibatlariga olib kelishi orqali xalqning axloqiy mezonlari badiiy shaklda yoritiladi. Shu jihatdan Qimmat obrazi yaramas fe'l-atvor va noto'g'ri xulqning ramziy ifodasidir.

Asardagi sinovlar, uchrashuvlar va mukofotlash motivlari ham ramziy mazmunga ega. Zumradning ezgu amallari yaxshilikning e'tirofi etilishi va rag'batlantirilishini anglatga, Qimmatning muvaffaqiyatsizliklari insonning o'z qilmishlari

uchun javob berishi haqidagi xalqona qarashlarni ifodalaydi. Ertakdagi voqealar rivoji adolat g'oyasining ustuvorligini ko'rsatishga xizmat qiladi. "Zumrad va Qimmat" ertagidagi obrazlar tizimi xalqning ma'naviy-axloqiy qarashlarini aks ettiradi. Zumrad ezgulik, poklik va mehnatsevarlik timsoli sifatida, Qimmat esa manmanlik, dangasalik va salbiy xulq-atvor ramzi sifatida obrazlashgan. Ushbu ramziy qarama-qarshilik ertakning asosiy g'oyaviy mazmunini tashkil etadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan afsonalardan biri bo'lgan Humo qushi haqidagi afsona xalqning baxt, ezgulik va yuksak orzular haqidagi tasavvurlarini o'zida mujassam etadi. Afsonaga ko'ra, Humo oddiy qush emas, balki insonlarga omad va saodat olib keluvchi afsonaviy mavjudot sifatida tasvirlanadi. Shu sababli ushbu obraz xalq tafakkurida alohida ramziy ahamiyat kasb etgan. Afsonada Humo qushi ko'pincha erkinlik, baxt va yuksaklik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Uning osmonlarda parvoz qilishi insonning ezgu maqsadlari, orzu-intilishlari va ma'naviy kamolot sari harakatini anglatadi. Xalq tasavvuriga ko'ra, Humo soyasi tushgan inson baxt va omadga erishadi. Bu qarashlar qush obrazining xalq ongida ezgulik va farovonlik ramziga aylanganligini ko'rsatadi. Humo qushi obrazi boshqa qushlardan o'zining ilohiylik va ulug'vorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Afsonada u yer bilan osmon, inson va ezgulik olami o'rtasidagi bog'lovchi timsol sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan Humo obrazi xalqning komillik, adolat va baxt haqidagi orzularini ifodalovchi badiiy ramz vazifasini bajaradi.

Afsonaning mazmunidan anglashiladiki, inson baxtga faqat moddiy boylik orqali emas, balki pok niyat, ezgu amallar va yuksak ma'naviyat orqali erishadi. Humo qushining afsonaviy tabiatga ega bo'lishi ham aynan shu g'oyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Humo qushi afsonasida Humo obrazi baxt, erkinlik, ezgulik va ma'naviy yuksalish ramzi sifatida obrazlashgan. Ushbu ramziy obraz orqali xalqning asrlar davomida shakllangan ezgu orzu-umidlari va ideal qarashlari badiiy ifodasini topgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek xalq og'zaki ijodi xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy qarashlari, urf-odatlar va hayotiy tajribalarini o'zida aks ettirgan boy madaniy merosdir. Folklor asarlarida uchraydigan ramzlar va obrazlar xalqning ezgulik, adolat, sadoqat, jasorat hamda baxt haqidagi tasavvurlarini ifodalashda muhim o'rin tutadi. Tahlil qilingan asarlar misolida ko'rish mumkinki, har bir obraz ma'lum bir ramziy ma'noni o'zida mujassamlashtirgan. Jumladan, "Alpomish" dostonidagi Oybarchin obrazi sadoqat, donolik va komillik timsoli bo'lsa, "Zumrad va Qimmat" ertagida Zumrad ezgulik va mehnatsevarlikni, Qimmat esa salbiy xulq-atvor va manmanlikni ifodalaydi. Humo qushi afsonasida esa Humo obrazi xalqning baxt, erkinlik va ezgu orzular haqidagi qarashlarini aks ettiradi. Demak, o'zbek xalq og'zaki ijodida ramz va uning obrazlashuvi xalqning ma'naviy olami, estetik tafakkuri va hayot falsafasini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ramziy obrazlar bugungi kunda ham o'zining tarbiyaviy va badiiy qimmatini yo'qotmagan bo'lib, xalq ma'naviyatining ajralmas qismi sifatida yashab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
3. Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqqa, 2010.
5. Sarimsoqov B. O'zbek folklori ocherklari. – Toshkent: Fan, 1988.
6. To'rayev O. Folklor va mifologiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.